MANAGEMENT AND ECONOMICS SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

jild. 3 No 3 (2026)



MANAGEMENT AND ECONOMICS SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

MENEJMENT VA IQTISODIYOT ILMIY-TADQIQOT JURNALI

НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ЖУРНАЛ МЕНЕДЖМЕНТА И ЭКОНОМИКИ

journals@timeedu.uz

+998 95 651 90 00

MANAGEMENT AND ECONOMICS
SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL

+998 95 651 90 00
@tmii_journal
journals.timeedu.uz
journals@timeedu.uz
Shota Rustaveli ko'chasi, 114

BOSH MUHARRIR:
Narbayev Sharafatdin Kengeshovich

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:
Norbekov Shohzod Mamarasul o‘g‘li

TAHRIR HAY’ATI:

1. Sharipov Kongratbay Avezimbetovich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, t.f.d., professor.
2. Axmedov Xojiakbarxon Dilshatovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'limi boshlig’i, i.f.n., dotsent.
3. Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, i.f.d., professor.
4. Xotamov Ibodullo Sadulloyevich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrasi i.f.n., professor.
5. Saidaxmedova Nodira Ilhomovna – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasi, i.f.d., (DSc) professori.
6. Sultanov Mansur Qilichovich – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi ekspertlar guruhi rahbari, t.f.f.d., dotsent.
7. Chertovitskiy Aleksandr Stepanovich – “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti“ Milliy tadqiqot universiteti, i.f.d., professor.
8. Popkova Yelena Gennadyevna - Rossiya Federatsiyasi avtonom notijorat tashkiloti “Ilmiy kommunikatsiyalar institute” prezidenti, i.f.d, professor.
9. Dr Goh Khang Wen – Malaziyaning INTI Xalqaro universiteti prorektori.
10. Wang Cheng – XXR “Hebei Institute of Mechanical and Electrical Technology” instituti, i.f.f.d., dotsent.
11. Xakimova Nilufar Karimkulovna – O‘zMU huzuridagi Yarimo‘tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti PhD, katta ilmiy xodimi.
12. Yo‘ldoshev Nuriddin Qurbonovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Biznes boshqaruvi va moliya kafedrasi, i.f.d., professor.
13. Chariyev Kurban Amirovich Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrasi, i.f.d., professor.
14. Turakulov Otabek Xolmirzayevich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Akademik va ilmiy faoliyat bo‘yicha prorektori, t.f.f.d., dotsent.

15. Abduraimova Nigora Radjabovna – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Iqtisodiyot kafedrasi, i.f.f.d. dotsent.
16. Anarkulova Gulnaz Mirzaxmatovna – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi, i.f.n., professor.
17. Yakubov Sadirjan Bakiyevich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi, i.f.n., professor.
18. Kadirova Istora Bobirovna – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Karyera markazi direktori, i.f.f.d., dotsent.
19. Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti, i.f.f.d., dotsent.
20. Mamatov Narzullo Solidjonovich – "TIQXMMI" MTU, kafedra mudiri, t.f.d., professor.
21. Toirov Shuxrat Abduganiyevich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasi mudiri, t.f.f.d. dotsent.
22. Yusupov Rustam Abdimuratovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasi, t.f.f.d., dotsenti.
23. Nazarov Xolmo‘min Abduxobovich – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasi, f.m.f.n. dotsent.
24. Olimov Sodiq Anvar o’g’li – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasi, p.f.f.d., dotsent.
25. Asrayev Muhammadmullo Abdulla o‘g‘li – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Muhandislik va axborot texnologiyalari kafedrasi, t.f.f.d., dotsent.
26. Yunusova Shaxnoza Muxamedumarovna – Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi, f.f.f.d., dotsent.

Texnik xodim: Azimova Durdona Azam qizi

MUNDARIJA

Чертовицкий А.С, Нарбаев Ш.К, Ахмаджонова Ш	Оценка эффективности использования земель сельскохозяйственного назначения в регионе: методический аспект	5
Вахобов А.Р	Агросуғуртанинг халкаро стандартларини жорий этиш масалалари	16
Mamatov M.N	Sport sohasini moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari	21
Primova Sh.K	Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning audit sifatiga ta'siri	33
Abdirakhmonov A.T	Appreciative leadership and its importance in organization development (od)-application to uzbekistan	42
Каландаров А. Б	Банкларнинг муаммоли кредитлар билан ишлаш амалиётини такомиллаштиришнинг долзарб масалалари	49
Mamajonova M.M	Impact without mass: divergent research signals for Uzbek universities in the THE and QS World University Rankings 2027	58
Saidaxmedova N.I, Norbekova N.M	Postindustrial transformatsiya sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning nazariy-metodologik kategoriyalari, mezonlari va indikatorlari	74
Sharipov Sh.X	Respublika va xorijda qo’llanilayotgan purkagichlar konstruksiyalarining tahlili va yangi model uchun optimal turini tanlash	81
Usarov J.A	Boshqaruv servis kompaniyalarida majburiy badallarni undirish jarayonining raqamlashtirilganlik darajasini kompleks baholash	92
Usarov J.A	Boshqaruv servis kompaniyalarida qarzdorlikni raqamli monitoring qilish va risk bo‘yicha segmentatsiyalash mexanizmi	105
Axrorov M.Sh	Nasos stansiyalarining energiya samaradorligini sun’iy neyron tarmoqlari asosida optimallashtirish	114

SPORT SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mamatov Mirziyod Normurod o‘g‘li

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti,
Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi

ORCID: 0009000014761685
mirziyodmamatov76@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sport sohasini moliyalashtirishning nazariy-uslubiy asoslari, zamonaviy moliyalashtirish modellari hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Sportni moliyaviy ta’minlashning Amerika va Yevropa modellari, shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Avstraliya va Yaponiya tajribasi qiyosiy jihatdan o‘rganilib, davlat va xususiy sektor ishtirokining ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Tadqiqotda ilmiy mushohada, qiyosiy va statistik tahlil, moliyaviy tahlil, guruhlash hamda ekspert baholash usullaridan foydalanilgan. O‘zbekistonda sport sohasini davlat budjeti hisobidan moliyalashtirish dinamikasi tahlil qilinib, ajratilayotgan moliyaviy resurslardan samarali va maqsadli foydalanish, budjet shaffofligini oshirish hamda moliyaviy nazoratni kuchaytirish zarurati asoslangan.

Kalit so‘zlar: sportni moliyalashtirish, davlat budjeti, moliyaviy resurslar, moliyalashtirish modellari, davlat-xususiy sheriklik, xususiy investitsiyalar, homiylik, budjet samaradorligi.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations of sports sector financing, modern financing models, and their specific characteristics. It presents a comparative study of American and European models of sports financing - as well as the experiences of the USA, the UK, Spain, Australia, and Japan - and highlights priority areas for public and private sector involvement. The research employs methods such as scientific reasoning, comparative and statistical analysis, financial analysis, grouping, and expert assessment. The study analyzes the dynamics of financing the sports sector in Uzbekistan through the state budget and substantiates the need for the efficient and targeted use of allocated financial resources, increased budget transparency, and strengthened financial oversight.

Key words: sports financing, state budget, financial resources, financing models, public-private partnership, private investment, sponsorship, budget efficiency.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы финансирования спорта, современные модели финансирования и их особенности. Проводится сравнительное исследование американских и европейских моделей финансирования спорта, а также опыта

США, Великобритании, Испании, Австралии и Японии, и выделяются приоритетные направления участия государственного и частного секторов. В исследовании используются методы научного наблюдения, сравнительного и статистического анализа, финансового анализа, группировки и экспертной оценки. Анализируется динамика финансирования спорта из государственного бюджета в Узбекистане и обосновывается необходимость эффективного и целенаправленного использования выделенных финансовых ресурсов, повышения прозрачности бюджета и усиления финансового контроля.

Ключевые слова: финансирование спорта, государственный бюджет, финансовые ресурсы, модели финансирования, государственно-частное партнерство, частные инвестиции, спонсорство, эффективность бюджета.

Kirish. Global o‘zgarishlar sharoitida turli tarmoq va sohalarni barqaror rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasining ham xalqaro maydonda e’tirof etilishida sport sohasining o‘ziga xos mavqei ortib bormoqda. Sport sohasi rivoji va uni moliyalashtirish bilan bog‘liq jarayonlarni rivojlangan davlatlar tajribalaridan kelib chiqqan holda o‘rganish hamda bu borada izlanishlar olib borgan tadqiqotchilarning nazariy va uslubiy yondashuvlarini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Birlashgan millatlar tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida Shvesariyaning Lozanna shahrida Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi tomonidan 2025-yil iyunida “Olimpizm 365: sport yaxshi dunyo uchun” nomlangan Sammiti bo‘lib o‘tdi. Ushbu sammit doirasida 70 dan ortiq davlatlarni, 100 dan ziyod xalqaro tashkilotlarni hamda 300 dan ortiq vakillarni birlashtirgan holda 45 ta umum milliy majburiyatlarni tasdiqlagan holda keyingi to‘rt yil davomida ishlab chiqiladigan sport sohasidagi tashabbuslar asosida sportdagi iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlarning drayveri sifatidagi rolini yanada mustahkamlash maqsadida 200 million AQSh dollari ajratilishi belgilab berildi. Bundan tashqari “Umumiy moliya” koalitsiyasi doirasida Parij-2024 sammitida sport va barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan 10 milliard dollarlik investitsiyalarni maqsadli jalb qilish tashabbusi ilgari surilgan [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-18-sonli farmonining qabul qilinishi 2024-yil 1-yanvardan O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi sifatida qayta tashkil etildi [2]. Sport sohasi davlat va jamiyat hayotida muhim o‘ringa ega. Aynan, sport sohasini rivojlantirish borasida xorijiy mamlakatlar tajribasini tadqiq qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda sportni rivojlantirish, xalqni sportga keng jalb etish dasturlarini amalga oshirish, aholi turli qatlamlari salomatligini mustahkamlash va bo‘sh vaqtni samarali o‘tkazish maqsadida madaniy-sog‘lomlashtirish tadbirlarini yo‘lga qo‘yish borasida katta tajribalar to‘plangan. Shu sabab, sport sohasi ko‘pgina xorijiy mamlakatlarda davlat siyoatining

ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xorijiy davlatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, sport sohasida davlat boshqaruvining aniq tizimi va ijtimoiy yo‘naltirilgan davlat-xususiy sherikchilik mexanizmlarining mavjudligi sportda yuqori natijalar bermoqda [3].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Jismoniy tarbiya va sport sohasining jamiyatdagi o‘rni ortib bormoqda. Bu borada, xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, xususan, Konstantinos Koronios tomonidan “Globallashgan davrda dam olish, tadbirlar va sportni boshqarish” mavzusidagi izlanishlarida, bevosita globalluv davrida aholi o‘rtasida doimiy tarzda sport tadbirlarini o‘tkazish va uni samarali boshqarish, ijtimoiy, falsafiy va madaniy g‘oyalar orqali aholining bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, ijtimoiy tengsizlik va tijoratlashuv masalalariga alohida ahamiyat qaratish, inklyuzivlik, ishchi kuchi salomatligini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilish kabi vazifalar zaruriyati ta’kidlab o‘tgan [4].

Gresiyalik Georgia Lagoudaki va Efi Tsitskari kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarga ko‘ra, sportni ijtimoiy jihatdan rivojlantirish va boshqarish borasida korporativ ijtimoiy ma’suliyatni oshirish ham muhim vazifalardan biri ekanligini ta’kidlangan. Shuningdek, korporativ ijtimoiy ma’suliyat choralarini qo‘llashni har bir tashkilot bevosita tushunib yetishi va nufuzini oshirishda muhimligi hamda sport xizmatlari iste’molchilari (homiylar, jamiyat a’zolari va aholi) undan manfaatdor bo‘lishlari, qolaversa sadoqat va ishonchni oshirishda muhim ahamiyatliligi ta’kidlab o‘tilgan. Tadqiqot yakuni sifatida sport tashkilotlarini rivojlantirishda “uch yo‘nalishli yondashuv modeli” ni ishlab chiqqan. Ular quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy samaradorlik;
- ijtimoiy ma’suliyat;
- ekologik barqarorlik [5].

Michal Varmus, Milan Kubina, Martin Miciak, Michal Sarlak va Ivan Greguska kabi xalqaro tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Yevropa Ittifoqida sportni moliyalashtirishning asosiy yondashuvi havaskor sport turlari (ayniqsa ommaviy sport tashkilotlari) davlat resurslari hisobidan moliyalashtiriladi. Ushbu mablag‘lar odatda sport infratuzilmasini rivojlantirishni moliyalashtirish uchun ishlatiladi (stadionlar, sport zallari va boshqalar), boshqa ehtiyojlar esa ixtiyoriy ravishda o‘z hisobidan moliyalashtiriladi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida ilmiy mushohada, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, ekonometrik tahlil va prognozlashtirish, statistik guruhlash va taqqoslama tahlil, vaziyatni ekspert baholash, moliyaviy tahlil kabi usullardan foydalanildi. Sport sohasisini moliyalashtirishning ilmiy va uslubiy jihatlarini tadqiq etish natijasida mazkur sohani ilmiy-nazariy jihatdan rivojlantirish borasida tavsiyalar

ishlab chiqildi, xususan, sport sohasini budjet mablag‘lari asosida moliyalashlashtirishda sport tashkilotlari tomonidan tuziladigan xarajatlar smetasida rejalashtirilgan maqsadli mablag‘larning smeta bo‘yicha ishlatilmay qolgan qismini moliya yili oxirida belgilangan tartibda Davlat budjetiga qaytarish orqali budjet taqchilligini oldini olish va budjet muvozanatini saqlash, moliyaviy resurslarni oqilona taqsimlash, budjet shaffofligini oshirish hamda fiskal ma’suliyatni ta’minlash muhim ahamiyatga ega.


Tahlil va natijalar. Jahonda sport sohasi rivojlanishiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, global sport sanoati 2025-yilda 488,5 milliard dollarga ko‘tarilib, butun dunyo bo‘ylab 3,7 milliarddan ortiq o‘z muxlislarini jalb qilgan holda sport bu shunchaki o‘yin maydonini tomosha qilish emas, balki u orqali turli innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va aholi turmush tarzini misli ko‘rilmagan tarzda tez fursatlarda o‘zgartiruvchi ko‘p qirrali kuch ekanligi namoyon bo‘ldi. Global sportda 2023-yilda homiylik bozori darajasi taxminan 45 milliard dollarni tashkil etdi [7].

Xorijiy olimlar va mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, bugungi kunda jahonda sport sohasini moliyalashtirishning ikkita asosiy modeli mavjud bo‘lib, u asosan Amerika va Yevropa modellari hisoblanadi. Mazkur modellar bir qator xususiyatlari va ko‘rsatkichlari bilan bir-biridan farq qiladi. Xususan, Amerika modelida sport sohasini davlat tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat budjeti tomonidan qo‘llab-quvvatlanmasligi va moliyalashtirilmasligi bilan farqlanadi. Davlatning qo‘llab-quvvatlashi asosan bilvosita shaklda bo‘lib, asosiy ustunlik xususiy sektor vakillariga berilgan bo‘lib, ularga soliq imtiyozlari taqdim etilgan. Shu sabab, ushbu modelning afzalliklari, sport asosan tijorat yo‘nalishida ustuvorlikka ega, professional sport esa biznes faoliyatining alohida turi sifatida e’tirof etish mumkin (1-rasm). Shuningdek, 1-rasmda Yevropa modeli bu bevosita aralash moliyalashtirish mexanizmi keltirib o‘tilgan. Unda davlat mablag‘larining ulushi yuqori bo‘lib, sport sohasini rivojlantirishda davlat siyosati va bozor mexanizmlari o‘zaro uyg‘unlashgan holda amalga oshiriladi. Shu bilan birga, ushbu modelda professional sportni tijorat faoliyati sifatida qo‘llab-quvvatlashga katta e’tibor qaratilgan.

1-jadvalda dunyoning turli mamlakatlarida sport sohasida tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish modellari keltirib o‘tilgan bo‘lib, xususan, AQSh, Buyuk Britaniya, Ispaniya va Astraliya kabi mamlakatlarda sport sohasini moliyalashtirishda turlicha yondashish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

Asosan, AQSh da sport federatsiyalariga a’zolik badallari, turli xayriya mablag‘lari, musobaqalargi tashrif uchun to‘lovlar, sport mahsulotlari va sport inventarlarini sotishdan hamda reklamalardan tushgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtiriladi. Bolalar va o‘smirlar sporti ota-onalar mablag‘i hamda federatsiyalarning tanlovi asosida moliyalashtiriladi. Olimpiya harakati esa homiylar,

jismoniy va biznes hamkorlar hamda 50 foizi Olimpiya qo‘mitasining investitsiya faoliyatidan olingan turli grantlar hisobidan moliyalashtiriladi.



1-rasm. Sportni moliyalashtirishda AQSh va Yevropa modellari tavsifi[1]

Avstraliyada sport sohasi milliy tizimini Avstraliya sport komissiyasi (ASC) tomonidan moliyalashtiriladi. Bolalar va o‘smirlar sporti Avstraliya sport komissiyasi (ASC) ning mahalliy va mintaqaviy budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish belgilab berilgan. Shuningdek, Olimpiya harakati mamlakatda yirik biznes vakillari tomonidan moliyalashtirish amalga oshiriladi (1-jadval).

Buyuk Britaniyada sport sohasi milliy tizimi Birlashgan Qirollik va boshqa turdagi jamg‘armalar hisobidan moliyalashtirilsa, bolalar va o‘smirlar sporti asosan davlat tomonidan moliyalashtirish belgilab qo‘yilgan. Olimpiya harakati bevosita davlat va nodavlat tashkilotlari daromadlari hisobidan moliyalashtiriladi. Buyuk Britaniyada ham sport sohasini davlat tomonidan moliyalashtirishga katta ahamiyat qaratiladi.

Xususan, 2028-yilda Amerika Qo‘shma Shtatlarining Los-Anjelesda bo‘lib o‘tadigan Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlari uchun Buyuk Britaniya sportni moliyalashtirish borasida oldindan ajratiladigan mablag‘larni rejalashtirgan. Los-Anjelesda 2028-yilda bo‘lib o‘tadigan Yozgi Olimpiya o‘yinlarini moliyalashtirish

[1] O‘rganilgan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

bo‘yicha jami sport turlaridan kelib chiqqan holda 255 731 000 funt sterling moliyaviy mablag‘lar ajratilishi belgilandi. Shuningdek, Yozgi Paralimpiya o‘yinlarini moliyalashtirish maqsadida esa sport turlaridan kelib chiqqan holda 74 900 000 funt sterling moliyaviy mablag‘lar ajratilishi belgilandi [8].

1-jadval.

Dunyoning turli mamlakatlarida sport sohasini moliyalashtirish modellari[2]

№	Davlatlar	*Moliyalashtirish modellari*		
		Sport sohasining milliy tizimi	**Bolalar va o‘smirlar sporti**	**Olimpiya harakati**
1.	**Amerika Qo‘shma Shtatlari**	70 ta millat vakillari	Ota-onalar to‘laydi	Homiylar mablag‘i hisobidan moliyalashtiriladi
		Sport Federatsiyalariga a’zolik badallari, xayriya mablag‘lari, musobaqalarga kirish to‘lovlari, sport mahsulotlari va inventarlarini sotish orqali moliyalashtiradi.	Federatsiyalar eng yaxshi yosh sportchilar uchun sport ligalarini shakllanishida homiylik qiladi.	Jismoniy shaxslar va biznes hamkorlari mablag‘lari; 50 foiz Olimpiya qo‘mitasining investitsiya faoliyatidan olingan grantlar
2.	**Buyuk Britaniya**	Sport uyushmalari tizimi: -Britaniya Olimpiya Uyushmasi (BOU); - Birlashgan Qirollik sporti; - Angliya sporti; - Shotlandiya sporti; -Yoshlar sportini rivojlantirish jamg‘armasi.	Davlat maktablaridagi darslar davlat tomonidan moliyalashtiriladi.	- Hukumat tomonidan moliyalashtiriladi; -Lotoreya mablag‘laridan moliyalashtiriladi; - Nodavlat tashkilotlar tomonidan moliyalashtiriladi; - Tijorat tashkilotlari va xususiy tadbirkorlar mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi
3.	**Ispaniya**	Davlat sport kengashi	Bolalar sportini qo‘llab-quvvatlash dasturi (ADE)	Olimpiya sport turlari bo‘yicha maqsadli dastur (ADO)
		Sport Federatsiyalari	- Davlat sport kengashi tomonidan	- Davlat va xususiy kapital tomonidan

[2] O‘rganilgan ma’lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

			tanlangan iqtidorli yoshlarni moliyalashtiradi; - Iqtidorli yosh sportchilar uchun stependiyalar ajratiladi.	moliyalashtiradi; -Yirik transmilliy kompaniyalarning sport mahsulotlarida logotiplardan foydalanish va reklama joylashtirish huquqi evaziga soliq imtiyozlari orqali moliyalashtiradi.
4.	**Avstraliya**	Avstraliya sport komissiyasi (ASC); - shtatlarda sport va fitnes uchun ma'sul agentliklar; - ASF – shtat sportini moliyalashtirish tashkiloti.	ASC – grant mablag'lari orqali dastur va tadbirlarni moliyalashtirish; Sport klublarini – mahalliy budjet mablag'lari orqali moliyalashtirish; SSA - mintaqaviy budjet mablag'lari orqali Avstraliya maktab sportini moliyalashtirish.	Biznesdan olinadigan daromadlar orqali moliyalashtiriladi.

Buyuk Britaniyada sport sohasi milliy tizimi Birlashgan Qirollik va boshqa turdagi jamg'armalar hisobidan moliyalashtirilsa, bolalar va o'smirlar sporti asosan davlat tomonidan moliyalashtirish belgilab qo'yilgan. Olimpiya harakati bevosita davlat va nodavlat tashkilotlari daromadlari hisobidan moliyalashtiriladi. Buyuk Britaniyada ham sport sohasini davlat tomonidan moliyalashtirishga katta ahamiyat qaratiladi.

Xususan, 2028-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarining Los-Anjelesda bo'lib o'tadigan Olimpiya va Paralimpiya o'yinlari uchun Buyuk Britaniya sportni moliyalashtirish borasida oldindan ajratiladigan mablag'larni rejalashtirgan. Los-Anjelesda 2028-yilda bo'lib o'tadigan Yozgi Olimpiya o'yinlarini moliyalashtirish bo'yicha jami sport turlaridan kelib chiqqan holda 255 731 000 funt sterling moliyaviy mablag'lar ajratilishi belgilandi. Shuningdek, Yozgi Paralimpiya o'yinlarini moliyalashtirish maqsadida esa sport turlaridan kelib chiqqan holda 74 900 000 funt sterling moliyaviy mablag'lar ajratilishi belgilandi [8].

Dunyoning kun chiqar mamlakati hisoblangan Yaponiyada sport sohasini moliyalashtirish tizimiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu mamlakatda aholining aksariyat qismi ikkita asosiy segment doirasida ya'ni sport bilan shug'ullanish va sport musobaqalarini tomosha qilishga mablag' sarflaydilar. Yaponiyada barcha ta'lim muassasalari jismoniy tarbiya va sport uchun zarur bo'lgan infratuzilmaga ega bo'lib, sport jihozlari va sport maydonchalari bilan ta'minlangan. Aholining katta

qismi mustaqil ravishda jismoniy faoliyat bilan shug‘ullanadi, shu bois, mamlakatda sport inshootlariga va xususiy sport klublariga ehtiyoj katta.

Yapon madaniyatida asrlar davomida chuqur ildiz otgan Sumo, Kendo va Dzyudo kabi an’anaviy sport turlari bilan birga zamonaviy beysbol, va futbol kabi sport turlari ham ommabop tarzda tez rivojlanmoqda. Yaponiyada sportni moliyalashtirish va ommalashtirish mamlakat uchun qimmatga tushadi. Yaponiyada sport ma’muriyati bir qancha vazirlik va idoralar, jumladan, Ta’lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi (MEXT) va Yaponiya sport agentligi tomonidan amalga oshiriladi. Ikki muassasa ham sportni tashkil etish va moliyalashtirishda faol ishtirok etmoqda. Bu borada Hukumat grantlari, investitsiyalar va xususiy sektorning xayriya mablag‘lari bilan birga sportni targ‘ib qilish loteriyasi ham sport bilan bog‘liq loyihalar, xususan, jamiyat darajasida sport muhitini rivojlantirish va yaxshilash maqsadida sport budjetiga o‘z hissani qo‘shadi [9].

O‘zbekistonda Davlat budjeti tomonidan sport sohasini moliyalashtirishga ajratiladigan moliyaviy mablag‘lar bo‘yicha yillik budjet parametrlarini tahliliy jihatdan ko‘radigan bo‘lsak, 2021-yilda sport sohasi boshqaruvi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan Jismoniy tarbiya va sport vazirligi sifatida qayta tashkil qilinib, yillik xarajatlarni moliyalashtirish maqsadida 302 193,3 mln.so‘m rejalashtirilgan bo‘lib, asosiy joriy xarajatlar sport sohasini rivojlantirishga, Olimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik ko‘rish, 2021-yil kalendar rejasiga muvofiq sport va ommaviy jismoniy tarbiya sport tadbirlarini uchun xarajatlar hamda sport ob’ektlarini loyihalashtirish, qurish va jihozlash uchun kapital ta’mirlash ishlariga rejalashtirilgan. Sport sohasiga rejalashtirilayotgan xarajatlar yillar sayin o‘sib borgan bo‘lib, xususan, O‘zbekiston Respublikasi sport vazirligi faoliyatini moliyalashtirish maqsadida 2024-yil uchun 1 509 109,9 mln.so‘m ajratilishi belgilangan [10].

Ushbu mablag‘lar bevosita sport sohasini rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish, Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlariga tayyorgarlik ko‘rish, sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlari uchun kalendar rejasiga ko‘ra, sport tadbirlari, ya’ni, “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida sport musobaqalarini o‘tkazish, sport maktablarini tibbiyot buyumlari va zamonaviy uskunalar bilan ta’minlash, “Kurash” xalqaro uyushmasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, O‘zbekiston futbolni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish hamda sport ob’ektlarini loyihalashtirish, qurish va jihozlash uchun kapital ta’mirlash ishlariga rejalashtirilgan. Davlat budjetidan ajratilgan moliyaviy mablag‘lar 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 31 985,2 mln.so‘mga moliyaviy mablag‘lar ortganligidan dalolat beradi. Taqsimlangan mablag‘larning eng katta qismi rivojlantirish dasturlariga va Olimpiya o‘yinlariga taqsimlangan (2-jadval).

Sport sohasini moliyalashtirish maqsadida har yili davlat budjeti parametrlarida boshqa tarmoq va sohalar kabi sport sohasini moliyalashtirishga ham mablag‘lar ajratilishi belgilanadi.

Ushbu mablag‘larni to‘g‘ri va oqilona sarflash, smeta xarajatlarini to‘g‘ri tuzish, moliyaviy mablag‘larni to‘g‘ri yo‘naltirish, Davlat budjetidan ajratilayotgan mablag‘larning hisobini yuritish va asoslash muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi PQ-422-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qaroriga ko‘ra, 2024-yil uchun Davlat budjeti mablag‘larining sport sohasini moliyalashtirish maqsadida taqsimlangan moliyaviy mablag‘larni tahliliy ko‘radigan bo‘lsak, 2023-yilda sport sohasida yuqori boshqaruv organi hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar va sport vazirligi sifatida faoliyat yuritgan bo‘lib, sport sohasini moliyalashtirish maqsadida 1 822 859,2 mln.so‘m taqsimlanishi belgilab berilgan.

2-jadval.

Davlat budjeti mablag‘larining sport sohasini moliyalashtirish maqsadida taqsimlangan mablag‘lar dinamikasi, mln.so‘m[3]

2022-yil uchun	**Taqsim-langan mablag‘lar**	**2023-yil uchun**	**Taqsim-langan mablag‘lar**	**2024-yil uchun**	**Taqsim-langan mablag‘lar**
O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi	**1 715 025,1**	***O‘zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi***	**1 218 692,4**	***O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar va sport vazirligi***	**1 822 859,2**
shundan ikkinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilar mablag‘lari:					
O‘zbekiston Futbol assotsiatsiyasi	6 205,6	O‘zbekiston Futbol federatsiyasi	5 064,5	O‘zbekiston Futbol federatsiyasi	31 050,3
O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi	135 000,0	O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi	220 000,0	O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi	250 000,0
O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi	30 859,5	O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi	34 620,0	O‘zbekiston Milliy paralimpiya qo‘mitasi	41 000,0

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-18-sonli farmonining qabul qilinishi 2024-yil 1-yanvardan

[3] https://lex.uz/docs/-5801134, https://lex.uz/ru/docs/-6333357, https://lex.uz/docs/-6721144 - *Qonun xujjatlari to‘plami.*

O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi sifatida qayta tashkil etildi [2]. Shu bois, 2024-yilda Sport vazirligi faoliyatini rivojlantirish maqsadida Davlat budjetidan ajratilgan moliyaviy mablag‘larning ijrosini tahliliy ko‘radigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 29-dekabrdagi PQ-422-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarorining 7-ilovasiga muvofiq rivojlantirish dasturlari va budjet xarajatlarini maqsadli indikatorlari ijrosi bo‘yicha Sport vazirligi faoliyatiga jami 1 822,9 mlrd.so‘m mablag‘ ajaritilgan. Biroq, aniqlangan rejaga muvofiq 1 611,8 mlrd.so‘mlik xarajatlar amalga oshirilgan bo‘lib, shundan 1 600,7 mlrd.so‘mlik moliyaviy mablag‘lar sarflangan, ya’ni 99,3 foiz ishlar amalga oshirilgan [10].

Sportni rivojlantirish dasturlariga 750,1 mlrd.so‘m moliyaviy mablag‘lar ajratilgan bo‘lib, sarflangan mablag‘larning 3/1 qismi Olimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash maqsadida jami 250,0 mlrd.so‘m rejalashtirilgan. Joriy yilda aniqlangan reja 228,0 mlrd.so‘mni tashkil etgan holda bajarilish ko‘rsatkichlari 100 foizni tashkil etgan. Ushbu mablag‘larning Sport vazirligi tomonidan to‘g‘ri yo‘naltirilishi va sarflanishi natijasida O‘zbekiston sportchilari tarixda birinchi marta jami 13 ta, shundan 8 ta oltin, 2 ta kumush, 3 ta bronza medallarini qo‘lga kiritib, umumjamoa hisobida 13-o‘rinni, Osiyo qit’asida 4-o‘rinni, Turkiy va islom mamlakatlari hamda Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi davlatlari bo‘yicha 1-o‘rinni egalladi [10].

Xulosa va takliflar. Sport sohasida faoliyat yuritayotgan sport muassasalarini moliyalashtirish va ularni qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlar amalda o‘zining ijobiy natijasini bermoqda. Biroq, olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida shunga amin bo‘ldikki, sport sohasini moliyalashtirilishi bevosita davlat budjeti mablag‘lariga tayanganligi, sport muassasalarining mustaqil o‘z-o‘zini moliyalashtirishga intilish va harakat qilish ko‘rsatkichining pastligi, sportda homiylik yoki davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirishga o‘tish darajasining pastligi, sport sohasiga xorijiy investitsiyalar ko‘lamining to‘liq shakllanmaganligi, sport sohasini moliyalashtirishda yangi innovatsion yechimlar ishlab chiqilmaganligi ma’lum bo‘ldi. Shu sababli, sport sohasini moliyalashtirish va ajratilgan moliyaviy mablag‘lar samaradorligini oshirish borasida quyidagi masalalarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: **birinchidan,** sport sohasini moliyalashtirish borasida rivojlangan mamlakatlarda xususan, Yevropa, Ispaniya, Yaponiya va Rossiya Federatsiyasi davlatlarida sport sohasini moliyalashtirishda erishilgan natijalar tadqiq qilindi. Har bir mamlakat o‘zining iqtisodiy salohiyati va sport turlaridan kelib chiqqan holda sport sohasini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga e’tibori turlicha shakllangan. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, sport sohasini boshqarishda moliyaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, professional jamoalarni shakllantirishda moliyalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, sport sohasini moliyalashtirishda davlat budjeti mablag‘laridan tashqari sohaga

mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilish va ularga imtiyozlar berish va sport sohasini moliyalashtirishda davlat xususiy sheriklik mexanizmini keng tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, sport sohasini moliyalashtirishda ajratilayotgan davlat budjeti mablag‘lari sarflanishini doimiy nazorat qilish va bu borada shaffoflikni ta’minlash orqali davlat budjeti tomonidan ajratilayotgan moliyaviy mablag‘lar taqsimoti, smeta xarajatlari va uning sarflanishi hamda unga ta’sir etuvchi omillarni doimiy aniqlash va unga tegishli choralar ko‘rish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, sport sohasini moliyalashtirish maqsadida har yili davlat budjeti parametrlarida sport sohasini moliyalashtirishga ham mablag‘lar ajratilishi belgilangan. Biroq, asosiy maqsad, ushbu mablag‘larni to‘g‘ri va oqilona sarflash, smeta xarajatlarini to‘g‘ri tuzish, moliyaviy mablag‘larni to‘g‘ri yo‘naltirish, davlat budjetidan ajratilayotgan mablag‘larning hisobini yuritish va asoslash muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinichidan, sport sohasini moliyalashtirishning innovatsion mexanizmlarini joriy etish, ya’ni, “Green Sport Finance” orqali moliyalashtirish, “yashil” kreditlarni joriy qilish va undan tushgan mablag‘larni sportga yo‘naltirish, kraudfanding (o‘zaro birlashish) asosida moliyalashtirish, blokcheyn va raqamli platformalar asosida moliyalashtirish hamda davlat xususiy sheriklik (PPP) asosida moliyalashtirish mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **https://sportsin.biz/olympism365-summit-mobilizes-200-million-for-sustainable-development-through-sport/**

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.01.2024 yildagi “Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-18-son farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-7276057

3. Опыт зарубежных стран в организатsии системы физического воспитания. Министерство Просвещения Российской Федератsии. https://togirro.ru/upload/medialibrary/8e1/bwemhggv32wwrtrb6pnd4ukk0xjpdos6.pdf

4. Konstantinos Koronios. Introduction: Managing Leisure, Events, and Sport in a Globalized Age. Reference Module in Social Sciences // Magazine. Available online 15 July 2025. www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/B9780443137013006149

5. Georgia Lagoudaki, Efi Tsitskari. Corporate Social Responsibility in Sports. Reference Module in Social Sciences. 2025. https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/B978044313701300373X

6. Michal Varmus, Milan Kubina, Martin Miciak, Michal Sarlak and Ivan Greguska. Sustainable Management of the Public Financial Model for Sports Support in Slovakia. Sustainability 2023, 15, 11310. https://www.mdpi.com/2071-1050/15/14/11310

7. Sports industry statistics. https://zipdo.co/sports-industry-statistics/

8. https://www.uksport.gov.uk/about-us/annual-reports - sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
9. Sports in Japan - statistics & facts. https://www.statista.com/topics/4986/sports-in-japan/#topicOverview
10. O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi ma'lumotlari. https://gov.uz/oz/sport

Ingliz tili muharriri: Norbekov Shohzod Mamarasul o‘g‘li
Musahhih: Vahobova Marfua Mirkamalovna
Sahifalovchi va dizayner: Azimova Durdona Azam qizi

2026. № 3

© Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.
Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El. pochta: journals@timeedu.uz
Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024 yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Litsenziya raqami: C-5669639
PNFL: 308906510

Manzilimiz: *Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani Shota Rustaveli ko'chasi, 114*